



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 284 sahifa,
1-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
Usmonova Muattar Bahadirjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni	14
Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari	17
Dilsora Shodmonova	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях	24
Истамова Нигора Азимжановна	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
Artikov Xayrulla Baxtiyarovich	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline	44
Lola Mannobova	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries	48
Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları	51
Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari	55
Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni	59
Abdunazarov Abdumutal Olimovich	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari	64
Alimova Gulrux Farhod qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	70
Axtamova Mohinur O'tkir qizi	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni	74
Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'liqinova Muxlisaxon Jamshid qizi	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida)	78
G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi	82
Hamraqulova Durdona Dilshod qizi	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi	87
Hikmatova Yulduz Nuritdinovna	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... ..	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli.....	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi	153
<i>Rahimova Sarvinov Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida turli materialdan amaliy ishlarni tashkil qilish metodikasi	195
<i>Sanakulov Xamrakul Rizakulovich, O'roqova Nigina Botirjon qizi, Xoliqulova Ozoda Shuxratovna</i>	
Modern Teaching Methods in English Language Learning.....	199
<i>Sarvinoz Abdulhakimova</i>	
Erkin Vohidov ijodining o'rganilishi	202
<i>Shahnoza Muhammadiyeva</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	205
<i>Shopulatova Nasiba Umirovna</i>	
Yuqori intensivlikdagi atsiklik yuklamalar ta'sirida futbolchilar organizmi funksional holatining yoshga oid xususiyatlari.....	208
<i>Shukurova Sayyora Sa'dullaevna, Kadirov Abdurashid</i>	
Talabalarda badiiy did va estetik tarbiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	211
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
The Role of Authentic Materials in Teaching English for Specific Purposes: Implications for Tourism Students.....	215
<i>Toshmamatova Marjona Olimjon kizi</i>	
Neyrokognitiv rivojlanish va bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik	220
<i>Toshpo'latova Mahina Farxod qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda terminologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari	224
<i>Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi</i>	
Artistic Pedagogy as a Basis for Developing Spiritual-Communicative Culture in Student Youth: Pedagogical Foundations	228
<i>Umarova Malika Khisabidinovna, Orifjonova Kamolabonu Kozimbek qizi</i>	
Pragmatic Competence and Cultural Adaptation in EFL Contexts: Challenges and Pedagogical Implications.....	232
<i>Veronica Khatamova</i>	
Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda morfologiya o'qitish muammosi	236
<i>Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi</i>	
Innovatsion yondashuv asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini o'qitish metodikasi muammo sifatida	240
<i>Zaxro Yo'ldashovna Shanasirova</i>	
Interaktiv topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini individuallashtirish	246
<i>Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi</i>	
The Role of Project-Based Learning and Artificial Intelligence Technologies in Enhancing Foreign Language Students' Academic Achievement and Motivation.....	250
<i>Olimov Sh. Sh., Zaripov K. Ya.</i>	
Mechanisms for Assessing Academic Achievements in the Finnish Education System and the Possibility of their Adaptation In Schools In Uzbekistan	254
<i>Saytbekova Svetlana Saylaubaevna</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish	257
<i>Xoldorova Mashxura G'ulomovna</i>	
Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlari va ularni O'zbekiston maktablarida qo'llash istiqbollari.....	260
<i>Xudaybergenova Zuxra Isakovna</i>	
Jadidchilik harakati va uning pedagogik-ijtimoiy mohiyati hamda tamoyillari	263
<i>Yusupov Ma'mur Ma'rufovich</i>	
Проблемы нравственного воспитания личности в произведениях В. Распутина.....	269
<i>Рахимова Шахзода Равшановна</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari	273
<i>Imamova Nasiba Xurramovna</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	276
Xidirov Faxriddin Fozilovich	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды	280
Рахмонова Нилуфар Уткир кизи	



NUTQ MADANIYATI VA NOTIQLIK SAN'ATI

Mamadaliyeva Lola Shailyasovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti

“Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi” kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada nutq madaniyati va notiqlik san'atining jamiyat hayotidagi o'rni, inson tafakkuri va muloqot jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, nutq madaniyatining asosiy mezonlari – til me'yorlariga rioya qilish, fikrning aniqligi, ravonligi va ta'sirchanligi haqida so'z yuritiladi. Notiqlik san'atining tarixiy ildizlari, uning bugungi kundagi ijtimoiy-siyosiy, ta'limiy hamda ma'naviy jarayonlardagi roli tahlil qilinadi. Maqolada samarali nutq tuzish usullari, tinglovchi e'tiborini jalb etish omillari hamda yosh avlodda nutq madaniyatini shakllantirish masalalari ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: o'rganish, o'qish, davlat tili, pedagogika, madaniyat, nutq, notiqlik san'ati, nutqning sofligi, ifodaviyligi, o'rinniligi, tilshunoslik.

Abstract: This article examines the role of speech culture and the art of oratory in the life of society, as well as their importance in human thinking and communication processes. It also highlights the main criteria of speech culture – adherence to language standards, clarity, fluency, and expressiveness of speech. The historical roots of the art of oratory are analyzed, along with its role in modern socio-political, educational, and spiritual processes. The article also discusses methods of effective speech construction, factors for attracting the audience's attention, and issues of developing speech culture among the younger generation.

Key words: learning, reading, state language, pedagogy, culture, speech, oratory, speech purity, expressiveness, appropriateness, linguistics.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль культуры речи и искусства ораторского мастерства в жизни общества, а также их значение в процессе мышления и общения человека. Также освещаются основные критерии культуры речи – соблюдение языковых норм, точность, плавность и выразительность высказывания. Анализируются исторические корни ораторского искусства, его роль в современных социально-политических, образовательных и духовных процессах. В статье также рассматриваются методы эффективного построения речи, факторы привлечения внимания слушателей и вопросы формирования культуры речи у молодого поколения.

Ключевые слова: обучение, чтение, государственный язык, педагогика, культура, речь, ораторское искусство, чистота речи, выразительность, уместность, языкознание.

KIRISH

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi yurtimizda davlat ishlarining, o'qish-o'qitish, ta'lim-tarbiya hamda targ'ibot-tashviqot ishlarining shu tilda olib borilishi uchun juda katta imkoniyat yaratdi. Tilga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi, uning barcha imkoniyatlarini o'rganish ishlari keng ko'lamda olib borilmoqda. Lekin shuni ham eslash joizki, tilning ijtimoiy vazifasini bajarish darajasini belgilovchi omillardan biri bo'lmish nutq madaniyatining yetarli darajada taraqqiy etmaganligi aчинаrli holdir. Shu bois nutq madaniyati sohasini chuqurroq o'rganish oldimizga qo'yilgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki nutqimizda uchrab turadigan nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish, nutq madaniyatini har qachongidan ham yaxshiroq rivojlantirish umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan siyosiy va ijtimoiy masaladir. Bu masala bilan shug'ullanish ishiga faqat tilshunoslargina emas, balki yurtimizda istiqomat qiluvchi barcha soha vakillari ham e'tibor berishlari maqsadga muvofiqdir. Nutq madaniyati umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, kishilarning yuksak madaniyatli bo'lishini belgilaydi.

“Notiqlik san'ati” fani o'zbek tilshunosligining o'ziga xos amaliy sohasidir. U tilshunoslikning nazariy kurslaridan olingan bilimlarga suyangan holda chiroyli nutq tuzish yo'llarini o'rgatadi. Ushbu fan til, til me'yorlari, nutq, nutqning sifatleri, nutqiy uslublar, nutqda uchrashi mumkin bo'lgan kamchilik va xatolar, nutqning talaffuziga doir muammolar yuzasidan bahs yuritadi. Nutq madaniyati ham fan sifatida o'z tekshirish obyekti va vazifalariga

ega. Uning tekshirish predmeti nutqning til qurilishi, adabiy til me'yorlari va nutqning kommunikativ fazilatlaridir. Nutq madaniyatining asosiy tekshirish obyekti adabiy til me'yorlari, asosiy vazifasi esa ushbu me'yorlardagi ikkilanishlarni bartaraf etishdan iboratdir.

Shunday qilib, nutq madaniyati asoslari fani adabiy til me'yorlarini, uning tarixiyligini, taraqqiy etib borishini, undagi ayrim unsurlarning eskirishi va ular o'rnida yangi me'yoriy unsurlarning paydo bo'lishini kuzatib, qayd etib boradi. Biroq bu fan adabiy me'yorlarni yaratmaydi, ayrim hodisalarni me'yor sifatida majburan kiritmaydi. Aksincha, o'zbek milliy adabiy tilining faoliyatini va rivojlanishini kuzatib boradi, uning obyektiv qonuniyatlarini kashf etadi hamda ular asosida tavsiyalar beradi. "Notiqlik san'ati" fani boshqa fanlar bilan aloqador bo'lgani kabi, "Nutq madaniyati" fani bilan ham uzviy bog'liq holda faoliyat yuritadi. Biroq ular har biri o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Professor E. Begmatov bu ikki fanni quyidagicha farqlaydi:

Nutq madaniyati chinakam ma'noda adabiy til bilan bog'liq hodisadir. Uning paydo bo'lishi, lisoniy asosi, talablari va mezonlari adabiy til hamda uning me'yorlari bilan bog'liqdir. Notiqlik san'ati uchun esa bular asosiy belgilar hisoblanmaydi. Notiqlik nutqning og'zaki shaklidir. Nutq madaniyati esa nutqning ham og'zaki, ham yozma shakllari uchun taalluqli tushuncha sanaladi. Nutq madaniyati jamiyat a'zolarining umumiy nutqiy faoliyatini ko'zda tutadi. Notiqlik esa, asosan, nutq vositasida kishilarga muayyan g'oya va maqsadlarni yetkazishni, ularni ma'lum maqsadga safarbar etishni nazarda tutadi. San'atkor notiq nutqi, asosan, ko'pchilik tinglovchilarga, keng auditoriyaga mo'ljallangan bo'ladi. Nutq madaniyati esa bunday tinglovchilardan tashqari kishilar orasidagi odatiy suhbatlarni, yakka shaxsga qaratilgan nutqlarni ham o'z ichiga oladi. Nutq madaniyati sohasi nutqning til qurilishi va lisoniy tuzilishiga e'tibor qaratsa, notiqlik ko'proq nutqning mazmuni va mantiqiy asoslariga e'tibor qaratadi.

Nutq madaniyati va notiqlik san'ati masalasi tilshunoslik, pedagogika hamda ritorika sohalarida keng o'rganilgan muhim ilmiy yo'nalishlardan biridir. Ushbu mavzu bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan.

O'zbek tilshunosligida nutq madaniyati masalalari A. Hojiyev, Sh. Rahmatullayev, B. O'rinboyev kabi olimlarning ishlarida til me'yorlari, nutqning to'g'riligi va ifodaliligi nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Shuningdek, N. Mahmudov va U. Tursunovlarning ilmiy izlanishlarida nutq madaniyatining lingvistik hamda uslubiy jihatlari chuqur yoritilgan.

Notiqlik san'ati esa qadimiy ritorika an'analari bilan bog'liq bo'lib, Aristotel va Sieron kabi mutafakkirlarning asarlarida uning nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Zamonaviy tadqiqotlarda notiqlik san'ati kommunikativ kompetensiya, pedagogik mahorat va ijtimoiy ta'sir vositasi sifatida o'rganilmoqda. Zamonaviy pedagogika hamda kommunikatsiya nazariyalarida nutq madaniyati shaxsning kasbiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil sifatida qaraladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlashda bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi.

1. **Tahliliy metod** – nutq madaniyati va notiqlik san'atiga oid ilmiy manbalarni o'rganish hamda umumlashtirish uchun qo'llanildi.
2. **Qiyosiy metod** – o'zbek va xorijiy olimlarning qarashlarini taqqoslash orqali umumiy va farqli jihatlar aniqlandi.
3. **Tavsifiy metod** – nutq madaniyatining asosiy mezonlari (to'g'rilik, aniqlik, ravonlik, ifodalilik) izohlandi.
4. **Sintez va umumlashtirish metodi** – olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlar, darsliklar va maqolalar tahlil qilinib, mavzuga oid nazariy qarashlar tizimlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nutq madaniyati hozirgi davrda tilshunoslik fanining dolzarb muammolaridan biridir. Bu muammoni hal etish umummadaniyatimiz taraqqiyotida, shuningdek, oliy ta'lim muassasalari, o'rta maxsus o'quv yurtlari va umumta'lim maktablarida dars o'tish jarayonini yaxshilash bilan ham bog'liq. Shuni qayd etish kerakki, bugungi kunda nutq madaniyati fanining barcha o'quv yurtlarida o'qitilishi quvonarlidir. Chunki notiqlik san'ati sirlarini o'rganish barcha sohalarida faoliyat yurituvchi har bir mutaxassis uchun, umuman, har qanday madaniyatli inson uchun hayotiy zarurat hisoblanadi. O'zbek adabiy tili va uning me'yorlarini ilmiy o'rganish ham o'zbek



nutq madaniyati sohasi uchun nihoyatda muhimdir. Adabiy tilning rivojlanish qonuniyatlarini, adabiy til me'yorlarining umumiy holatini, undagi turg'un va noturg'un hodisalarni chuqur tekshirmasdan turib, adabiy tilning nutq madaniyati haqida fikr yuritish mumkin emas.

Nutq madaniyati fonetika, orfoepiya, orfografiya, leksikologiya, morfologiya, sintaksis, semantika va uslubiyat kabi tilshunoslik fanlari bilan aloqador bo'lishi bilan birga, o'z mohiyatiga ko'ra psixologiya, estetika, etika, sotsiologiya, madaniyatshunoslik hamda adabiyotshunoslik kabi qator ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Nutq madaniyati muammolari o'rganilar ekan, ushbu fanlarda qo'lga kiritilgan ilmiy xulosalardan ham umumiy tarzda bo'lsa-da, xabardor bo'lish lozim. Shundagina o'qituvchi nutqini, umuman, so'zlovchi nutqini to'g'ri tushunish, baholash va zarur hollarda unga ergashish mumkin bo'ladi. O'qituvchining ovozi, talaffuzi, diksiyasi, umuman, tirik nutqi hamisha o'quvchilar, ayniqsa, kichik sinf o'quvchilari uchun o'ziga xos etalon va namuna vazifasini bajaradi. O'qituvchining tirik nutqidagi har qanday nuqson, katta-kichikligidan qat'i nazar, o'quvchi nazaridan chetda qolmaydi va darhol uning diqqatini tortadi. Bunday nuqson o'qituvchi nutqida muntazam kuzatilsa, o'quvchi o'qituvchidan nohaq bo'lsa-da, ranjigan paytlarida mazkur nuqson asosida uni sirtidan kalaka va mazax qilishgacha borishi mumkin. Masalan, o'quvchilar o'zaro ana shunday o'qituvchi haqida gaplashganda, uni aynan shu nuqsonli ovoz, talaffuz yoki diksiya bilan eshlashlari mumkin. Bu esa umumiy tarbiya jarayoni uchun ijobiy holat emas.

Kasbga sadoqatli o'qituvchi o'z o'quvchilari ko'zi o'ngida benuqson va hurmatga sazovor ustoz qiyofasini yaratish hamda saqlash uchun hamisha nutqining fonetik jihatdan to'g'ri bo'lishi haqida qayg'urishi zarur. To'g'ri, tug'ma xirqiroqlik yoki chiyildoqlik kabi ovozni yoqimsiz qiladigan jihatlardan tamoman qutulishning imkoni yo'q. Ammo nutq texnikasini yetarli darajada bilmaslik oqibatida yuzaga keladigan nuqsonlardan fonetik bilimlar, ovozni yo'lga qo'yish ("postanovka golosa"), aniq talaffuz qilish va nutq jarayonida to'g'ri nafas olish bo'yicha turli mashqlar yordamida imkon qadar xalos bo'lish mumkin. Mashhur qadimgi yunon notig'i Demosfenning dastlab ovozi past, talaffuzi yomon va nafasi qisqa bo'lganligi sababli chiroyli hamda ta'sirli nutq ayta olmaganligi haqida tarixchilar yozganlar. Bu sohani chuqur o'rgangan olim S. Inomxo'jayev ta'kidlaganidek, keyinchalik Demosfen nutq texnikasi asoslarini egallashga juda jiddiy kirishgan. U bir yerto'la qazib, shu yerda ovozi rivojlantirish, diksiya va deklamatsiya bo'yicha oylab mashqlar qilgan. Talaffuzidagi nuqsonlar, jumladan, "r" tovushini ayta olmaslik va ayrim tovushlarni noaniq talaffuz qilish kabi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida og'ziga mayda toshlar solib, she'rlar va turli matnlarni o'qish bilan shug'ullangan.

Ovozi rivojlantirish va nutq apparatini chiniqtirish uchun esa tepaliklarga yugurib chiqib-tushgan, nafasini ushlab turgan holda she'rlarni deklamatsiya qilgan. Demosfen gapirayotganda bir yelkasini ko'tarib turish odatidan qutulish uchun yerto'lasining shiftiga uchi o'tkir xanjar osib qo'ygan va mashqlar davomida yelkasini xanjarning uchiga yaqin tutgan. Ana shunday mashaqqatli va muntazam mashqlar tufayli Demosfen notiqlik san'atining eng yuksak cho'qqilaridan birini zabt etgan. O'qituvchi nutqida kuzatiladigan kamchiliklardan biri fonatsiya jarayonida, ya'ni nutq hosil bo'lish paytida nafas olishdagi tartibsizliklar bilan bog'liqdir. Fonatsiya jarayonida nafas olish va nafas chiqarish fazalari shunday yo'lga qo'yilishi kerakki, nafas olish zo'riqishsiz va nisbatan tezroq, nafas chiqarish esa tekis, bir me'yorda hamda davomliroq kechishi lozim. Nafas chiqarish qanchalik uzoq davom etsa, shunchalik yaxshi. Chunki tovush va nutq aynan shu jarayonda hosil bo'ladi.

Fonatsiyada nafas olish va nafas chiqarish fazalarining ketma-ketligi hamda almashinish tartibini to'g'ri tasavvur etish zarur. Bu fazalar bilan nutqning hajmiy va mazmuniy-estetik qurilishi o'rtaidagi mutanosiblikni to'g'ri belgilamaslik oqibatida nafas yetmay qolishi, bir nafas bilan aytilishi lozim bo'lgan nutq bo'lagining bo'linib ketishi va mantiqiy mazmuni buzadigan no'rin pauzalarning paydo bo'lishi kabi nuqsonlar yuzaga keladi. Masalan, "Qadimiy va boy tilimizning sofligini saqlash har birimizning burchimizdir" jumlasini aytilayotganda, har bir so'zdan keyin nafas olish zarurati tug'ilsa, jumla mazmuni buziladi va noto'g'ri idrok qilinadi. Ba'zan noto'g'ri taqsimlangan nafas jumlaning oxirigacha yetmay qoladi va so'nggi so'zlar "yamlanib" talaffuz qilinadi. Bunday holatda so'zlovchi go'yo bo'g'ilib qolgandek yoki juda qiynalayotgandek taassurot uyg'otadi. Bu esa tinglovchi uchun ham noqulaylik tug'diradi.

Tajribali o'qituvchi faqat baland yoki faqat past ovozda dars o'tmaydi. Tovushlarning balandligi, kuchi, tembri va cho'ziqligidan iborat akustik sifatlarining turli darajalarini bayon qilinayotgan axborotning mazmuni va tabiatiga, shuningdek, sinfdagi o'quvchilarning ruhiy holatiga mos ravishda modulyatsiya qiladi, ya'ni o'zgartirib turadi. Shu tariqa u monoton, quruq va ifodasiz nutqdan qutulib, nutqning ohangdorligi hamda ta'sirchanligiga erishadi.

O'qituvchi nutq texnikasi bilan bog'liq nuqsonlardan yana biri nutq tempi, ya'ni tezligini to'g'ri belgilamaslik yoki tezlik va sekinlikning maqsadga muvofiq muvozanatini saqlay olmaslikdir. Nutq tempi, albatta, bayon qilinayotgan materialning mohiyati va ifodalanayotgan fikr tuzilishiga mos bo'lishi kerak. Aks holda, o'qituvchi materialni haddan tashqari tez bayon qilsa, o'quvchi axborotni to'liq qabul qilish, muhim jihatlarni ilg'ash va chuqur idrok etishda qiyinchilikka duch keladi.

Boshqacha aytganda, o'quvchining idrok sur'ati o'qituvchining nutq tezligidan ortda qoladi. Shu sababli o'qituvchi o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, dars paytidagi ruhiy holati, charchagan yoki charchamaganligi

hamda materialni qanday qabul qilayotganligini inobatga olgan holda nutq tempini tanlashi va zarur hollarda uni o'zgartirib turishi pedagogik hamda psixologik jihatdan to'g'ri yondashuv hisoblanadi.

Nutq texnikasida diksiya masalasi ham alohida o'rin tutadi. Har bir tovush va so'zning to'g'ri hamda aniq talaffuz qilinishi, nutq oqimida so'z shakllari va gaplarning "chaynalmaligi", ayniqsa, o'qituvchi nutqi uchun jiddiy talablardandir. Taassufki, ba'zan o'qituvchilar nutqida ham diksiya noaniqligi bilan bog'liq nuqsonlar kuzatiladi. Masalan, ayrim hollarda "z" tovushini jarangsiz "s" tovushiga moyil tarzda talaffuz qilish uchraydi: siz – sis, eshitdingiz – eshitdingis kabi. Bu va shunga o'xshash nuqsonlar nutq tovushlarining hosil bo'lish o'rinlarini yaxshi bilmaslik va artikulyatsion apparat (tovush hosil qilishda ishtirok etadigan nutq a'zolari)ning yetarli darajada faol emasligi natijasida paydo bo'ladi.

Noto'g'ri yoki noaniq talaffuz qilinadigan tovushning hosil bo'lishida ishtirok etadigan nutq a'zolarining faolligini oshirish orqali kishi nutqidagi bunday diksion xatolarni tuzatish mumkin. Buning uchun turli mashqlar yaxshi yordam beradi. Masalan, tez aytishlar, maqol va matallar, shuningdek, turli mazmundagi matnlarni muntazam ravishda ovoz chiqarib takrorlash ana shunday mashqlarning bir ko'rinishidir. Umuman, o'qituvchi o'zining nutq texnikasini takomillashtirish borasida doimiy ravishda qayg'urishi, fonetika va fonologiyaga oid bilimlardan umumiy tarzda bo'lsa-da xabardor bo'lishi, zarur hollarda o'z nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradigan mashqlardan muntazam foydalanib borishi maqsadga muvofiqdir. Chunki mukammal nutq texnikasiz o'qituvchining, umuman, har bir nutq tuzuvchining og'zaki nutq madaniyatini yetuk deb bo'lmaydi.

Notiqlik san'ati va nutq madaniyati nafaqat so'zdan, uning fikr va maqsadni ifodalash imkoniyatlari hamda qudratidan, balki "tana tili" deb atash mumkin bo'lgan muhim vositadan ham foydalana olishni o'z ichiga oladi. Inson omili har qanday muloqotning asosiy tarkibiy jihatini tashkil etadi. Ruhshunos olimlarning fikriga ko'ra, odamlar insonni dastlab tashqi taassurot asosida baholaydilar. Tashqi taassurot esa dastlabki muloqot jarayonida shakllanadi. Bu, ayniqsa, rahbarlik lavozimida ishlovchilar uchun muhimdir. Aristotel bu haqda fikr yuritarkan, so'zlovchining xarakteri ham muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlagan.

"Tashqi til"ni tushunish rahbar uchun nafaqat o'zгалar oldida o'zini to'g'ri tutish, balki ularda kerakli taassurot uyg'otish uchun ham zarurdir. Muloqot jarayonida ko'zlangan maqsadga erishish uchun kasbdoshlarning, o'zingizdan yuqori lavozimda turgan rahbarning muhokama qilinayotgan masalaga munosabatini ham bilishingiz kerak. Inson tanasi esa, u nima haqida gapirayotganidan qat'i nazar, o'zining "unsiz tili"ga murojaat qilishi muqarrardir. Taniqli rejissyor K. S. Stanislavskiyning: "Qo'llar fikrni oxirigacha bayon etishga yordam beradi", degan fikri o'rinlidir. Demosfen ham yaxshi notiq bo'lish uchun nima qilish kerak, degan savolga: "Qo'l harakati, qo'l harakati va yana qo'l harakati", deb javob bergan edi. Bunday mulohazani fransuz olimi Jil Delezda ham kuzatamiz: "So'zlarning hokimlik qudrati o'z kulminatsiyasiga aytilgan gaplar tana bilan ifodalangan holatlar bilan uyg'unlashganda erishadi". Shunday ekan, so'zlovchi muloqot jarayonida nafaqat chiroyli so'zlay bilishi, balki tana harakati, qo'l harakatlari, mimika va boshqa noolingvistik (paralingvistik) vositalardan foydalana bilishi hamda ularning ma'nolarini to'g'ri idrok eta olishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aksariyat tadqiqotchilar to'g'ri ta'kidlaganlaridek, "tana tili" inson madaniyatini aks ettiradi. Bu haqda F. Laroshfuko shunday degan edi: "Har qanday harakatning uning o'zigagina xos bo'lgan qo'l harakati, ohang va mimikasi mavjud. Ular uyg'otgan taassurot yaxshi yoki yomon, yoqimli yoki yoqimsiz bo'lishi odamlarning bizga intilishi yoki bizdan uzoqlashishiga sabab bo'ladi". Shuning uchun ham A. S. Makarenko yuzga qarab inson ruhiyatidagi holatlarni anglash mumkinligini ta'kidlab: "Inson yuzidan ko'p narsani o'qish yoki anglash mumkin", degan edi.

Xabar uzatishning boshqa noolingvistik shakllarida ham bunday holatni kuzatish mumkin. Masalan, biron kishining (masalan, rahbarning) xonasi eshigini ochib, "Keling!" degan so'zni eshitsangiz, oddiy holatda uni "Keling, o'tiring" ma'nosida tushunasiz. Ammo bu murojaat qanday ohangda aytilganiga qarab, "Bu yerda nima qilib yuribsiz?", "Sizni kim chaqirdi?", "Nega keldingiz?" yoki "Qayerlarda yuribsiz?" kabi ma'nolarni ham anglatishi mumkin. Fikrni ifodalovchi noolingvistik vositalar ko'p hollarda ongli ravishda boshqarilmaydi va nutq bilan ziddiyatga kirishishi mumkin. Mashhur rus yozuvchisi M. Bulgakovning "Usta va Margarita" romanidagi bir voqea administrator bilan teatr direktorining muloqotiga bag'ishlangan. Unda administrator direktorni yolg'on gaplariga ishontirishga urinadi va buning uchun o'zining "tana tili"dan mohirona foydalanadi.

Muloqotga kirishayotgan kishi inson xatti-harakatlari, yuz ifodasi va imo-ishoralari bir qancha omillar bilan bog'liq tarzda namoyon bo'lishini yaxshi bilishi kerak. Ularning ayrimlari hamma uchun umumiy va turg'un ma'no kasb etib, muayyan so'z birikmalarida o'z ifodasini topgan bo'ladi. Iboraga aylangan bunday so'z va so'z birikmalari inson xatti-harakatlarini ifodalashda ular bilan uyg'unlashib ketadi. Masalan, boshini egmoq, boshini chayqamoq, qaddini bukmoq, qaddini dol qilmoq, musht ko'tarmoq va hokazo. Notiqlik san'ati tushunchasi. Notiqlik san'ati og'zaki va yozma nutqni tinglovchilarga jonli, ifodali hamda ta'sirchan tarzda yetkazish malakasidir. Notiqlik san'ati murakkab san'at bo'lib, uni egallash kishidan qunt va chidam, malaka hamda tajriba talab etadi. Notiqlik san'atining ijtimoiy mavqei shu qadar keng va serqirradi, uni har bir sohada me'yori, mazmuni, shakli, o'ziga xosligi, ta'sir kuchi va boshqa jihatlari nuqtayi nazaridan alohida-alohida ko'rib chiqish uchun muayyan vaqt va imkoniyat talab etiladi.



XULOSA

Notiqlik san'ati nafaqat so'zdan, uning fikr va maqsadni ifodalash imkoniyatlari hamda qudratidan foydalanishni, balki qo'l harakatlari deb atash mumkin bo'lgan muhim vositalarni ham o'rinli qo'llay olishni o'z ichiga oladi. Inson omili har qanday muloqotning asosiy tarkibiy jihatini tashkil etadi. Ruhshunos olimlarning fikriga ko'ra, odamlar kishini dastlab tashqi taassurot asosida baholaydilar, tashqi taassurot esa dastlabki tanishuv va muloqot jarayonida shakllanadi. Shuning uchun tinglovchilarga o'zini munosib taqdim eta olish, maqsadga muvofiq taassurot uyg'ota bilish siyosiy yoki jamoat arbobining eng muhim kasbiy malaka ko'rsatkichlaridan biridir. Kishining betakror individualligini ifodalovchi erkin va qoliplarga tushmaydigan nutq uslubi, oddiy va ma'nodor harakatlari, o'zini erkin hamda faol tutishi o'zgarlarda uning samimiyligi va sof ko'ngilligiga nisbatan ishonch tuyg'usini uyg'otadi.

Notiqlik san'atining tarixi juda uzoq bo'lib, u eramizdan avvalgi V asr boshlarida Yunonistonda shakllana boshlagan. Yunonistonda aristokratiya o'rniga demokratiya tuzumining qaror topishi natijasida davlat ishlarida, xalq majlislarida, senat kengashlarida, sud va boshqa yig'ilishlarda respublikaning har bir ozod fuqarosi erkin nutq so'zlash huquqiga ega bo'lgan. Davlat ishlarini boshqarishda qatnashishni xohlagan har bir kishi uchun chiroyli va ta'sirchan so'zlash san'atini egallash muhim ehtiyojga aylangan. Sud ishlarida o'rnatilgan tartib ham notiqlik san'atining yuksalishiga katta turtki bergan. Sud jarayonlarida javobgar o'ziga qo'yilgan ayblarning asossizligini dalillar asosida isbotlab, nutq so'zlashi talab etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
2. Begmatov E. Nutq madaniyati muammolari. – Toshkent: Fan, 1997. – 208 b.
3. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
4. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – 184 b.
5. Mahmudov N. Til. – Toshkent: Tafakkur, 2010. – 240 b.
6. Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi va nutq madaniyati. – Samarqand: SamDU nashri, 2015. – 196 b.
7. Tojiyev Y. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat masalalari. – Toshkent: Universitet, 2006. – 224 b.
8. Husanov N., Umurqulov B. Nutq madaniyati. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2007. – 192 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.